

Kafedra mudiri:

Otaqo'zieva Zuhra Maratdaevna., i.f.n., dotsent

Qabul vaqti: Dushanba-Juma (16:00-18:00)

Telefon: (0 371) 238-65-96, 238-64-51

E-mail: zukhra.otakuzieva@rambler.ru

Kafedra tarixi

“Pochta aloqasi texnologiyasi” kafedrasini 1999 yilda “Pochta xizmatini avtomatlashtirish” nomi bilan tashkil etilgan. Kafedrani tashkil etishda, o'quv rejalari, fanlar namunaviy dasturlarni yaratishda, mutaxassislik fanlari buyicha adabiyotlar bilan ta'minlashda va kompyuterlar bilan jixozlangan sinfni yaratishda uning birinchi mudiri katta o'qituvchi R.G.SHEgayning (1999-2003 yy. rahbarlik qilgan) xizmatlari katta bo'ldi.

U “O'zbekiston pochta” DAK va uning joylardagi filiallari bilan yaxshi aloqalar o'rnatdi. 2003 yildan 2005 yilgacha kafedraga pochta xizmati korxonalarida ish tajribasiga ega bo'lgan, texnika fanlari doktori, professor N.A.Mo'minov mudirlik qildi. 2005-2008 yillarda kafedrani f.m.f.n., dotsent G'.Ibragimov boshqardi.

Kafedra “Pochta aloqasi texnologiyasi” ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi. 2003 yilda kafedraning birinchi bitiruv tarkibida 37 bakalavrlar bo'lgan. 2016 yilda kafedra 72 bakalavrlar tayyorlagan.

2008 yildan kafedrani texnika fanlari nomzodi, dotsent M.M.Maxmudov boshqardi. SHu davr ichida kafedrada kompyuter sinfni jihozlash, namunali pochta bo'limin tashkil qilish hamda “O'zbekiston pochta” AJ mutaxassislari bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil qilish bo'yicha katta hajmda ishlar qilindi. 2009 yilda Ilmiy-texnik va marketingtadqiqotlar markazi direktorining 2009 yil 20 mart 73-K bo'yru'giga binoan kafedraning katta o'qituvchisi E.T.Ishdavletova, A.S.Popov nomli Odessa milliy aloqa akademiyasi qoshidagi kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarda tahsil oldi.

2013 yilda kafedra Moskva informatika va aloqa kolleji hamda Minsk oliy davlat aloqa kolleji bilan tajriba almashish bo'yicha xalqaro munosabatlar o'rnatildi. Hamkorlik natijasida “Pochta aloqasi texnologiyasi” mutaxassisligi bo'yicha chet el mualliflarining o'quv qo'llanmalar olingan va kafedra o'qituvchilari xalqaro konferentsiyalarida ishtiroki ta'minlangan.

2013 yil sentyabr oyidan “Pochta xizmatini avtomatlashtirish” kafedrasini nomi o'zgartirildi va hozirda “Pochta aloqasi texnologiyasi” deb nomlanadi.

2013 yildan 2016 yilgacha kafedraga iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Bazarov Furqat Odilovich rahbarlik qildi. SHu yillar mobaynida bakalavriyatning ta'lim yo'nalishi 5350500 – Pochta aloqasi texnologiyasi hamda 5A350501 – Pochta xizmatini tashkil etish va texnologiyasi magistratura mutaxassisligi uchun yangi Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Kafedra tomonidan “O'zbekiston pochta” AJ hamda DUK “Unicon.uz” bilan hamkorlikda xo'jalik shartnomlar asosida ishlar olib borilmoqda.

Kafedra tanlovda qatnashib Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining 2015-2017 yillarga mo'ljallangan 35 mln. so'mlik amaliy tadqiqot granti ustida ish olib borilmoqda.

2016 yildan hozirgi davrga qadar «Pochta aloqasi texnologiyasi» kafedrasini iqtisodiyot fanlari nomzodi Otaqo'zieva Zuhra Maratdaevna boshqarmoqda. Otaqo'zieva Z.M. bir qator o'quv qo'llanmalar, 70 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi. Uning ilmiy maqolalari Portugaliya, Polsha, Germaniya, AQSH, Rossiya, Xitoy va boshqa davlatlarda chop etilgan. Otaqo'zieva Z.M. «Ecologiya va hayot havfsizligi Xalqaro akademiya» azosi, har yili turli xalqaro anjumanlarda ishtirok etib keladi (Xalqaro aloqa akademiyasi, Sankt-Peterburg davlat telekommunikatsiyalar universiteti).

Bugungi kunda Otaqo'zieva Z.M. 2016 yil 1-yanvardan TDIU doctaranturasida mustaqil tadqiqotchi sifatida qabul qilinib, 08.00.06 "Эконометрика и статистика» ixtisosligi bo'yicha «O'zbekiston korxonalarida zamonaviy AKT larni tatbiq etish muammolari va ularning rivojlanishida axborotlashgan iqtisodiyotning roli» nomli doktorlik dissertasiyasi ustida ilmiy ish olib bormoqda.

Toshkent aloqa kasb-xunar kolleji va axborot texnologiyalari akademik litseyida kafedra o'qituvchilari tomonidan "Pochta aloqasi texnologiyasi" yo'nalish bo'yicha tahsil olayotgan o'quvchilar uchun muammoli ma'ruzalar o'tqazilmoqda.

Kafedra o'qituvchilari kafedra ilmiy mavzusi bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan seminarlar hamda xalqaro, respublika ilmiy-texnik va ilmiy-metodik konferentsiyalarda ishtirok etib kelishmoqda. Misol uchun, TATU rectorining buyrugiga asosan, 2017 yilning 1-2 mart kunlari Rossiya Federasiyasining Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan «Fan va talimda infokommunikatsiyalarning dolzarb muammolari» deb nomlangan VI Xalqaro ilmiy-texnik va ilmiy-uslubiy anjumanda kafedra mudiri Otaqo'zieva Z.M. va Kudryavtseva L.V. o'z ma'ruzalari bilan qatnashdilar.

Bundan tashqari, kafedra o'qituvchilari tomonidan maxsus va ilmiy-ommabop respublika va xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalar muntazam ravishda chop etilmoqda.

28.03.2017y. «O'zbekiston Pochtasi» AJning yetakchi mutaxassislari bilan reja asosida o'tkazilgan muammoli ma'ruzalarga bag'ishlangan uchrashuvda TATUning 133-13 PATr guruhi talabalariga xalqaro o'zaro hisob-kitoblar bo'limi boshlig'i Z.M.Andreyeva tomonidan "Xalqaro pochta almashinuvi va o'zaro hisob-kitoblarni tashkil etish" mavzuida ma'ruza o'qib eshittirildi.

Ma'ruza davomida «O'zbekiston Pochtasi»ning hamkorlikdagi, ya'ni, xorijiy davlatlar bilan tranzit pochta tamoyillari asosida amalga oshiriladigan masalalari, shuningdek xorijiy davlatlar pochta operatorlari bilan o'zaro hisob-kitoblar mexanizmiga doir qiziqarli ma'lumotlar keltirildi.

"O'zbekiston Pochtasi" AJning yetakchi mutaxassislari xamkorligida muammoli ma'ruzalar o'tkazish rejasiga asosan, joriy yilning 30- mart kuni, TATUda "Pochta aloqasi texnologiyasi" yo'nalishining 130-131-132-14 PATy guruhi talabalari va "O'zbekiston Pochtasi" AJ "Xalqaro pochta" filialining "Pochta xavfsizligi bo'limi" bosh mutaxassisi F.Fozilov ishtirokida "Pochta aloqa korxonalarida pochta xavfsizligi tizimini takomillashtirish yo'nalishlari" mavzuida muammoli ma'ruza mashg'uloti o'tkazildi.Ma'ruzada shuningdek, kafedra katta o'qituvchisi L.Jo'rayev va assistent R.Xudoyberdiyevlar ishtirok etishdi.

Ma'ruza davomida «O'zbekiston Pochtasi» AJ "Xalqaro pochta" filialida pochta jo'natmalarini xavfsizligini taminlashda foydalaniladigan xavfsizlik qurilmalari va ularni takomillashtirish tamoyillari to'g'risida malumot berib o'tildi.

17 aprel kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida "Pochta aloqasi texnologiyasi" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari hamda "UNICON.UZ" DUK "Elektron raqamli imzo kalitlarini ro'yxatga olish markazi" yetakchi mutaxassisi D.A.Radjabov,"Pochta aloqasi texnologiyasi" kafedrasi assistenti G'.R.Mamatqulovlar ishtirokida "Elektron raqamli imzo kalitlaridan foydalanish tartibi" mavzuida o'quv-amaliy seminar mashg'uloti o'tkazildi. O'quv mashg'ulotda xujjatlarni elektron ko'rinishda topshirish va qabul qilish jarayonlari yuzasidan talabalarga atroflicha nazariy va amaliy ma'lumotlar berildi.

Bakalavriat

5350500

Pochta aloqasi texnologiyasi

Magistratura

5A350501

Pochta aloqasini tashkil etish va texnologiyasi

Kafedrada o'qitiladigan fanlar

Bakalavriat:

- Pochta aloqasida xavfsizlik va sifat
- Pochta aloqasini avtomatlashtirish
- Logistika asoslari
- Transport tizimlarida logistika
- Pochta xizmati reglamenti
- Biznes jarayonlari va elektron xujjat aylanish tizimi
- Logistikaning iqtisodiy va matematik usullari
- Zamonaviy pochta aloqasi
- Xizmatlar sohasida logistika
- Pochta aloqasida marketing
- Bank xizmatida tijorat faoliyati va asoslari
- Logistika markazlarini loyihalashtirish
- Inson resurslari boshkaruvi
- Sug'urta
- Axborot resurslarini boshqarish

Magistratura

- Pochta aloqasida marketing-logistika
- Sifat boshqaruv tizimlarini loyihalashtirish
- Loyihalashtirish va boshqaruvning integratsiyalashgan tizimlari
- Pochta aloqasida IT-menejment
- Pochta aloqasida innovatsion texnologiyalar
- Xalqaro pochta aloqalari

Kafedra professor o'qituvchilari

- Otaqo'zieva Zuhra Maratdaevna
- Nazarova Gulchexra Nurmuhamedova
- Ishdavletova Emma Talgatovna
- Kudryavtseva Lyubov Vasilevna
- Raximova Sevara G'ayratovna
- Mamatqulov G'ulom Rustamovich
- Axmadbekov Xokimbek Xasan o'g'li

Kafedraning ilmiy uslubiy ishlari

- Otaqo'zieva Zuhra Maratdaevna - «Олий таълим сифатини таъминлашда интернет хизмаларидан фойдаланишнинг муаммо ва ечимлари», монография, 2016 yil;
- Kudryavtseva L.V. - 2-kurslar uchun o'quv-tanishuv amaliyoti uchun o'quv-uslubiy qo'llanma;
- Ishdavletova E.T. - 4-kurslar uchun bitiruv oldi amaliyoti uchun o'quv-uslubiy ko'rsatma;
- Muxitdinov X.A., Sobirov A.A. - "Ishlab chiqarishni tashkil etish va personalni boshqarish" fanidan o'quv qo'llanma;
- Bazarov F.O., Alimova N.R. - "Logistika asoslari" fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma;
- Bazarov F.O., Ma'murov B.X. - 4-kurslar uchun bitiruv oldi amaliyoti hisobotini tayyorlash bo'yicha o'quv-uslubiy ko'rsatma;
- Ma'murov B.X. - "Ishlab chiqarish tashkili va personalni boshqarish" fanidan o'quv-uslubiy ko'rsatma;
- Ma'murov B.X. - "Raxbarlik qobiliyatini shakllantirish" fanidan o'quv-uslubiy ko'rsatma;
- Bazarov F.O., Alimova N.R. - "Inson resurslarini boshqarish" fanidan o'quv qo'llanma;
- Bazarov F.O. va boshqalar - "O'zbekistonda axborot jamiyatini shakllanishi: xorijiy tajriba, tendentsiyalar va istiqbollari" monografiya;
- Bazarov F.O. va boshqalar - "Axborotlashgan jamiyatning shakllanish tendentsiyalari va qonuniyatlari" monografiya;
- Bazarov F.O. va boshqalar - "Innovatsion menejment" nomli o'quv qo'llanma;
- Bazarov F.O., N.R.Alimova - "Biznes jarayonlari va elektron xujjat aylanish tizimi" nomli o'quv qo'llanmalar yaratildi.

Kafedra ilmiy-tadqiqot ishlari

- "O'zbekiston pochta" AJ bilan xamkorlikda "Xalqaro jo'natmalari yo'nalishlari rejasini tuzishda avtomatlashtirish" mavzusida 17,0 mln. so'mlik (shartnoma № 22/13) va "AJ "O'zbekiston pochta" 250 pochta aloqa bo'limlari uchun VPN kanallarni tashkil etish" mavzusida 16,176mln. so'mlik xo'jalik shartnomasi (shartnoma № 08/12) amalga oshirilmoqda.
- "O'zbekiston iqtisodiyotining lizing xizmati sohasida axborot texnologiyalarini joriy etish" mavzusida 2015-2017 yillarga mo'ljallangan 35 mln. so'mlik ID 1846 PZ 2014-0911170408 granti ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda;
- "Pochta xavfsizligi" fanidan 2014-2016 yillarga mo'ljallangan 15 mln. so'mlik elektron darslik ustida xo'jalik shartnomasi asosida ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.
- "O'zbekistonda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusida 2016-2018 yillarga mo'ljallangan 80.0 mln. so'mlik amaliy loyiha ustida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.